



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№19 (805), 2025-yil 17-oktabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Innovasiya – taraqqiyot omili!

TAJIRIBA, ISHONCH VA JAMOAVIY HAMJIHATLIK NATIJASI

Tarkibida oltin mavjud bo'lgan ma'danlarni yanchishda asosan sharli tegirmonlar qo'llanilmoqda. Metallurgiya sanoatida sharli tegirmonlarni almashtirish va qayta o'rnatish, bu – mashaqqatli va murakkab jarayon.

Bunday murakkab ishni atigi ikki sutkada amalga oshirishni mutlaqo tasavvur ham qila olmasdik. Qalovini topsang qor ham yonarkan. Biz, innovatsion yechim orqali bu natijaga erishdik va bu yangilik amalda o'zini to'la oqladi hamda korxona tarixida noyob amaliyot sifatida muhurlandi.

Joriy yilning sentabr oyida 1-gidrometallurgiya zavodida 1971-yildan buyon ishlatib kelina-yotgan va jismonan eskirgan, og'irligi 105 tonna bo'lgan "MSH 32x31" rumumli sharli tegirmonni yangisiga almashtirish zarurati tug'ildi. Mavjud texnik reglamentlarga ko'ra, ushbu tegirmonni almashtirishga ma'lum vaqt talab etardi. Kombinat rahbariyati tomonidan tegirmonni qisqa muddatda almashtirish vazifasi qo'yilganligi bois, biz bu masalani mas'ul mutaxassislar bilan birgalikda atroflicha muhokama qildik.

Bu masala bo'yicha kombinatimiz bosh direktori Quvondiq Sanaqulovichga o'z fikr-mulohazalarimizni bildirdik. Shunda, u kishi bu jarayonni necha kunda amalga oshirmoqchi ekanligini so'radi. Biz, oldindan qilingan hisob-kitoblarga asosan, 5-6 kun ichida bajarishimizni aytdik. Bosh direktor esa tajriba sifatida bu ishni ikki kunda tugatish mumkinligini aytdilar. O'zbekiston metallurgiya tajribasida tegirmonni almashtirish bunday qisqa fursatda amalga oshirilmagan edi.

Bildirilgan takliflarni amalga oshirish maqsadida, harakatga tushdik. Ayrim mutaxassislar tegirmonni butunlay tashqarida yig'ib olishni, so'ng binoning tom qismini ochgan holda, maxsus kranlar yordamida 20 metr balandlikdan pastga tushirib o'rnatishni taklif etishdi. Boshqalar esa darvoza qismini buzib, tegirmonni ichkariga olib kirish mumkinligini ta'kidlashdi. Ammo, sharli tegirmon o'zining jihozlari, barabani bilan birga 75 tonna og'irlikka ega ekanligi, shuningdek, binoning eskiligi, vaqt juda cheklanganligi sababli hisob-kitoblar, tegirmonni ikki kunda yig'ib, o'rnatishning imkoni yo'qligini ko'rsatdi.

Ochig'ini aytganda, yechim topa olmay, yana bosh direktorning huzurlariga bordik. Shunda, u kishi ushbu masalaning yechimini topganliklarini aytib, tajribali mutaxassis sifatida ish jarayonini muhandislik nuqtai-nazaridan qanday tashkil etish bo'yicha interaktiv doskada chizmalar bilan batafsil tushuntirib berdilar. Ya'ni, ishlab chiqarish sur'atiga erishish uchun sexdagi eski tegirmonni to'xtatmasdan, yangisini ochiq maydonda yarim tayyor holda yig'adigan bo'ldik. Tegirmonni ochiq maydonda yig'ish ishchilar uchun yanada qulaylik yaratdi. Bu, haqiqatan ham eng samarali, xavfsiz va zararli omillardan xoli bo'lgan yangi innovatsion yechim edi.

Qarangki, shuncha yillik tajribamiz bo'la turib, bu haqda o'yab ham ko'rmagan ekanmiz. Ushbu topshiriq bajarilishining mohiyati shundaki, tegirmon bino tashqarisida to'rt bo'lakda tayyorlanadigan bo'ldi. Tajribada bu ishlar ilgari bino ichida,

ishlab chiqarish jarayoni to'xtatilgan holda bajarilgan, qismlar alohida yig'ilgan, tayyorlangan va tegirmon yaxlit holga keltirilgan. Payvandlash ishlari esa tegirmon barabani ichida amalga oshirilgan. Bu esa ishni zararli omillar ostida bajarilishini taqozo etardi.

Bu ishimizga ko'pchilik shubha bilan qaradi. Yashirishga ne hojat, hatto, o'zimizda ham ikkilanishlar bor edi. Ammo, "ko'z qo'rqqoq, qo'l botir" deganlaridek, katta ishonch bilan 28 sentabr kuni soat 20:00 da ishni to'rt smenada tashkil etib, ya'ni, tegirmonni ikki sutka ichida yangisiga almashtirishga kirishdik. Ishning to'g'ri va sama-



rali tashkil etilgani dastlabki natijalarini ko'rsata boshladi. O'n ikki soatda tegirmonni demontaj qilishni muvaffaqiyatli yakunladik.

Sexdagi ko'priksimon kraning yuk ko'tarish qobiliyati 20 tonna ekanligini hisobga olib, tegirmonning har bir qismini 18 tonnadan oshmaydigan holda tayyorlashga kirishdik. Xususan, yigirma to'rt qatorlik 72 ta futorovkaning asosiy qismi ochiq maydonda barabanga o'rnatildi. Shuni ta'kidlash lozimki, avvalgi usulda ko'pgina ishlar sharli tegirmon barabanining ichida bajarilar, bu esa payvandchilar, chilangar va boshqa mutaxassislar uchun ma'lum qiyinchiliklarni, xavfli va noqulay ish sharoitlarini keltirib chiqarardi. Yangilik sifatida ilk bor qo'llanilayotgan tajribamizda asosiy ishlar ochiq maydonda bajarildi. Yana bir yutug'imiz – barabanga o'rnatiladigan barcha futorovkalar Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlanib, har biri qayerga o'rnatilishi aniq belgilangan ishlarni jadallashtirishga imkon yaratdi. Bu orada bosh direktorimiz bir necha marotaba,



Yangi tegirmon qismlarini o'rnatish jarayonida yangi texnik yechimlar topganimizni angladik. Jumladan, shu paytgacha suv sizib chiqmasligi uchun baraban va ikki tomondagi devorlarini (toreslar) bir-biriga payvandlab, mustahkamlar edik. Bu jarayonni amalga oshirish juda murakkab bo'lib, ko'p vaqt talab qilardi. Yangi taklif bo'yicha payvandlash ishlari o'rniqa baraban va devorlar oralig'iga rezina qoplamani o'rnatish bilan cheklandik, ya'ni, 20 metrga yaqin payvandlash ishlari jarayondan mutlaqo olib tashlandi. Sharli tegirmon bir necha kundan beri ishlamoqda va suv sizib chiqish holati kuzatiladi. Shunday qilib, murakkab va ko'p vaqt talab etadigan usuldan voz kechib, samarali va tezkor yechim topildi.

Ik bor amalga oshirilgan bunday yangi yondashuv, avvalo, sharli tegirmonni o'rnatish vaqtini odatdagi holatdan 80 foizgacha qisqartirish mumkinligini ko'rsatdi. Yangicha yondashuvning joriy etilishi xarajatlarni qisqartirib, 1,1 milliard so'm miqdorida qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, kombinatimizda amalga oshirilgan bu tajriba muhandislik jihatdan hamda tegirmonlarni almashtirish muddatini qisqartirish va mablag' tejash borasida yangicha yondashuvni boshlab berdi. G'oyatda murakkab va og'ir jarayon hisoblangan sharli tegirmonni almashtirishning ikki kunda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat texnik yutuq, balki muhandislarimizning salohiyati, jamoaviy hamjihatlik va to'g'ri yondashuvning yorqin namunasi bo'ldi, desak ayni haqiqatdir.

Bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda tashabbuskor bo'lgan va bizni qo'llab-quvvatlagan kombinat rahbariyati hamda mutaxassislari, Navoiy mashinasozlik zavodi jamoasiga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz!

Avaxxon EZOXONOV,
"Qizilqum" kon boshqarmasi direktori.

■ Xushxabar

O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi Vasiylik Kengashining qarori bilan bir guruh yurtdoshlarimiz turli darajadagi "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

“MEHNAT FAXRIYSI”
KO'KRAK NISHONI
TOPSHIRILDI

Xususan, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Quvondiq Sanaqulov hamda Investitsiyalar boshqarmasi boshlig'i Nemat Ro'ziyevlar birinchi darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan mukofotlandi.

Navoiy shahridagi "Oqsaroy" majmuasida "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonlarini viloyat hokimi N. Tursunov o'z egalarga tantanali ravishda topshirdi.

■ Xabar

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor Aleksandr Yevgenevich Antonovning 85 yilligi, uning ilmiy va amaliy faoliyati haqidagi "Жизнь, посвященная геологии" kitobi taqdimotiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

GEOLOGIYA SOHASI
OLIMNING
85 YILLIGI
NISHONLANDI

Tadbirida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q. Sanaqulovning tabrigi o'qib eshittirilib, professor A. Antonovga "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni tantanali tarzda topshirildi.

"NKMK" AJ bosh muhandisi A. Ravshanov, Mineral resurslar instituti direktorining maslahatchisi I. To'ramurotov, H. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti laboratoriya mudiri B. Nurtaev, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rektori B. Mardonov, kombinat bosh geologi o'rinbosari I. Hamroyev, kombinat bosh direktorining transformatsiya bo'yicha birinchi o'rinbosari Ye. Antonov va boshqalar taniqli geolog-olimning yutuqlari, jurnalist N. Sadriiddinovning bu inson hayot yo'li haqidagi kitobi yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Ta'kidlash kerakki, Aleksandr Yevgenevich 60 yildan ortiqroq vaqtdan buyon O'zbekiston geologiya sohasiga xizmat qilib kelmoqda. U geologiya rivoji va fan taraqqiyoti, yurtimiz hududidagi ko'plab yer osti boyliklari konlarini qidirib topish, ularni ilmiy jihatdan o'rganish, respublikamizning mineral xomashyo bazasini mustahkamlash barobarida geolog-mutaxassislar hamda olimlarni tarbiyalashga ham katta hissa qo'shyapti.

Shohruf TURDIYEV.

■ Zarafshon shahri tashkil topganligining 60 yilligiga



Zarafshon shahriga, hech shubhasiz, xuddi shunday ta'rif berish mumkin. Shaharning tashkil topishi va O'zbekistonning yirik sanoat markazlaridan biriga aylanishi asriy Qizilqum bag'rida qimmatbaho metall – oltinning katta zaxirasi topilishi hamda uning o'zlashtirilishi boshlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Sahroda zamonaviy infratuzilmaga ega ko'rkam maskanning bunyod bo'lishi va Zarafshon, deya nomlanishida o'zbek xalqining atoqli farzandi, davlat

va jamoat arbobi Sharof Rashidovning xizmatlari beqiyos. Sentabr oyining oxirida shahar tashkil topganligining 60 yilligi keng miqyosda nishonlandi. Za-

SAHRO BAG'RIDAGI MO'JIZA SHAHAR

rafshon shahrini yanada obodonlashtirish, yangi ijtimoiy obyektlarni qurish va foydalanishga topshirish ishlari ancha ilgari boshlangan edi.

Shaharning oltinchi yilligi oldidan qator obyektlar foydalanishga topshirilgani va ba'zilar qayta rekonstruksiya qilinib, yangi qiyofa kasb etganligi zarafshonliklarga alohida quvonch bag'ishladi. Jumladan "Nuroniylar maskani", Markaziy ko'ptarmoqli poliklinika, Tez tibbiy yordam binosi, "SHOXMED" xususiy klinikasi, Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universitetining Zarafshon fakulteti ochildi, shuningdek, shahar jome masjidi, shaharga kiraverishdagi "Zarafshon" yozuvi stellasi va tuyalar majmuasi, "Qizilqum" markaziy o'yin-gohi hamda tennis korti qayta rekonstruksiya qilindi, madaniyat va sport tadbirlari o'tkazildi.

Zarafshon shahrining 60 yilligiga bag'ishlangan asosiy bayram tantanasi "Oltin vodi" madaniyat saroyida bo'lib o'tdi. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv raisi – Bosh direktori Quvondiq Sanaqu-

lov shahar aholisini tarixiy sana murosabati bilan qizg'in tabrikлади. Darvoqe, mamlakatimizda inson qadriini ulug'lash yo'lida olib borilayotgan islohotlar samarasi Zarafshon shahri misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy turar-joylar, bu ko'rkam maskanoning shaharsozlik infratuzilmasi, betakror xiyobonlari har qanday kishining havasini uyg'otadi. Shahar hududi yildan-yilga kengayib, aholi soni yuz ming nafarga yetay deb qoldi. "NKMK" AJning yirik bo'linmasi bo'lgan Markaziy kon boshqarmasining 18 ming nafar mutaxassislari, ishchi-xizmatchilari, ularning oila a'zolari Zarafshonda umrguzaronlik qilayotganligi bu shaharni konchilar maskani deyishga to'la asos bo'ladi. So'nggi yillarda shahar yanada chiroy ochmoqda. Akvapark, favvoralar sayilgohi, sport inshootlari, "Umid" sog'lomlashtirish maskani, Tomdi ixtisoslashtirilgan maktabi kabi obyektlarning foydalanishga topshirilgani hudud aholisi, ayniqsa, yosh avlodga g'amxo'rlikning yorqin namunasidir. Yangi gidrometallurgiya zavodlari foydalanishga topshirilgani, "Muruntov" koni, 2-gidrometal-

lurgiya zavodining kengaytirilayotganligi, Zarafshon mexanika-ta'mirlash zavodining tashkil etilganligi zarafshonliklarning bandligini ta'minlashda yangi imkoniyatlar yaratib beryapti.

Tantanali yig'ilishda Navoiy viloyati hokimining o'rinbosari Jamshid Xodjaev viloyat hokimi Normat Tursunovning zarafshonliklarga tabrigini o'qib eshittirdi va Zarafshon shahri hokimi Nazirbek Rahmonovga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Ta'lim homiysi" ko'krak nishonini topshirdi.

Bayram shodiyonalari "Zarafshon" bolalar oromgohida to'kin-sochin dasturxon atrofida davom etdi. Bu yerda konchi va metallurglar, quruvchi va energetiklar hamda o'nlab boshqa kasb sohiblari istiqomat qilayotgan shahar yubileyi hamda O'qituvchi va murabbiylar kuni sharafiga tabrik so'zlari, shahar va viloyat madaniyat muassasalarining badiiy jamoalari, poytaxtdan kelgan taniqli san'atkorlar ijrosidagi kuy va qo'shiqlar yangradi. Zarafshon shahrining 60 yilligi haqiqiy bayramga aylandi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

■ Davlat mukofoti sovrindorlari

DOLZARB ILMYIY-TADQIQOTLAR YO‘LIDA

fidoyilik bilan shuhrat topgan olim

Olimlik, bu – faqatgina ilmiy daraja emas, balki butun hayotni izlanishga, yangilik yaratishga va kelajak avlodlarga ilmiy meros qoldirishga bag‘ishlashdir. Ilm yo‘li kishidan sabr, fidoyilik va qat’iyat talab qiladi. Har bir muvaffaqiyat ortida yillar davomidagi tinimsiz mehnat, sinov va izlanishlar yotadi. Shu ma’noda, kimyo-metallurgiya sohasiga munosib hissa qo‘shayotgan olim, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “Metallurgiya” kafedrası professorı Xayrullo Hamidov hayoti va faoliyati ilm yo‘lini tanlagan har bir kishi uchun yuksak namunadir. Fidoyi olim O‘qituvchi va murabbiylar kuni bayrami munosabati bilan Prezidentimizning farmoniga ko‘ra taqdirlangan bir guruh o‘qituvchilar qatorida davlatimizning yuksak mukofoti – “Shuhrat” medaliga sazovor bo‘lgani bejiz emas.

X.Hamidov 1980-yilda Jomboy tumanida tug‘ilgan. Uning ilmiy faoliyati 2000-yildan boshlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Umid” jamg‘armasi stipendiyasini qo‘lga kiritib, dastlab Buyuk Britaniyaning Bristol universitetida tahsil oldi. Keyinchalik shu universitetda PhD darajasi bo‘yicha ilmiy ishini himoya qildi. Keyinchalik Buyuk Britaniyaning Edinburg universitetida faoliyat yuritib, ilmiy izlanishlar olib bordi. Uning ishtirokidagi xalqaro konferensiyalar, Yaponiyadan Rossiya-gacha bo‘lgan ilmiy anjumanlardagi chiqishlari soha mutaxassislari tomonidan yuqori baholandi. 2011-yildan Toshkent

shahrida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali davom ettirgan salohiyatli pedagog 2017-2019-yillarda O‘zFA Navoiy bo‘limida, 2019-yildan NDKTUda ish olib bormoqda. Bugungi kunda X.Hamidov Kyushu (Yaponiya), Kembriji (Angliya) kabi universitetlar olimlari bilan metallurgiya sohasi bo‘yicha xalqaro dasturlarda dolzarb tadqiqotlar olib borayapti. – Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi nafaqat kadrlar tayyorlash, balki ilmiy-tadqiqotlarda ham muhim sanaladi, – deydi qahramonimiz. – Bu borada Navoiy kon-metallurgiya kombinati va universitetimiz hamkorligi qator ijobiy natijalarni bermoqda. Birgina misol,



“Metallurgiya” kafedrası tarkibidagi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasiga “Apreo 2 S LoVac” markali skanerlovchi mikroskop o‘rnatildi. Eng zamonaviy yangi qurilma namunalarini 2-3 million marta-gacha kattalashtirish imkonini beradi. Bu dolzarb tadqiqotlar uchun keng yo‘l ochdi. Ayni vaqtda mazkur tadqiqot muassasasida qator izlanishlar va chuqur ilmiy-amaliy tahlillar bajarilayapti.

Darhaqiqat, X.Hamidov ilmiy izlanishlari, xalqaro loyihalar va yirik grantlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi bilan elyurt e’tiborini qozonmoqda. Uning eng katta xizmati shundaki, u yosh avlodni ilmiy izlanish, yangilik yaratish va ilm or-

qali jamiyatga xizmat qilishga ilhomlantirmoqda. Tadqiqotchi olimning umr yo‘li nafaqat ilmiy natijalar, balki insoniy fazilatları – kamtarlik, samimiyat va fidoyilik bilan ham bezalib turibdi.

Shubhasiz, komil olimlik – hayotning eng oliy cho‘qqilaridan biri. Bu marrani zabt etishni esa hamma ham uddalay olmaydi. Xayrullo Hamidovning ilmiy faoliyati – yosh avlod uchun ibrat maktabi, Vatanimiz ilm-fanini dunyoga ko‘rsatuvchi yorqin namuna, desak xato bo‘lmaydi.

Ozod MUSTAFOYEV,
jurnalist.

■ Yosh mutaxassislar faoliyatidan

“Muruntov” konida portlatish ishlari kundalik vazifa hisoblanadi. Konchilar bu ishlarini amalga oshirishda xavfsiz va samarali faoliyati bilan boshqa bo‘linmalarga namuna bo‘lib kelmoqda.

SAMARALI
RATSIONALIZATORLIK
TAKLIFI

Yaqinda konda bloklarni portlatishda ma’danning sifatsizlanishi va yo‘qotilishining oldini olishga qaratilgan yana bir usulni joriy etish ishlari sinovdan o‘tkazildi.

Hozirga qadar “Muruntov” konida ommaviy portlatish ishlaridan so‘ng kon massasining texnologik yo‘li qisman yoki to‘liq portlatilgan tog‘ jinslari bilan yopilib qolishi natijasida yo‘l ochilguniga qadar (bir sutkagacha vaqt sarflanishi mumkin) kon massasini qazib olish unumdorligi pasayardi. Portlatish zanjirining markaziy qismi uchun sekinlashtirilgan darajasi sekunda 67 metrni tashkil etgan vositalardan foydalanib, portlatiladigan blokning o‘rta qismidan tortilib, montaj ishlari archasimon ko‘rinishda olib borilar edi. Konda burg‘ilash va portlatish ishlari olib boriladigan pog‘onada ommaviy portlatishdan so‘ng tog‘ jinslarining maydalanishi turli xilligi sabab yuklash ishlari salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Bundan tashqari, portlatilgan ma’danli tog‘ jinslarining siljish masofasi yuqori va portlatilgan kon massasining me’yorida yuqoriga ko‘tarilishi kuzatilgan. Bu, o‘z navbatida, ma’danning bir-lamchi joylashish strukturasi o‘zgarishiga olib kelgan. Kon mutaxassislarining izlanishlari va amaliy sinovlari natijasida shu kabi muammolarga yechim topildi.

Kon muhandislari Oybek Sadritdinov, Sarvar Rayimov, Asqar Rajabov hamda kon bosh muhandisining o‘rinbosari Oybek Saidovlar hammuallifligida ratsionalizatorlik taklifi ishlab chiqildi. Ular portlatish ishlarida amaldagi montaj

sxemasini o‘zgartirish, ya’ni, quduqlar va yuza uchun mo‘ljallangan noelektrik qo‘zg‘atish vositalarining sekinlashtirish darajasi joylashuvini optimallashtirish hisobiga muammoni hal qilish taklifini kiritdilar. Ratsionalizatorlik taklifiga muvofiq quduqlar uchun sekinlashtirilgan darajasi sekunda 500 metr, yuza qismi montaji uchun sekinlashtirilgan darajasi sekunda 400 metr va portlatish zanjirining markaziy qismi uchun sekinlashtirilgan darajasi sekunda 200 metrni tashkil etgan vositalardan foydalanib, portlatiladigan blokning so‘nggi qatorlaridan tortilgan holda montaj ishlari perpendikular ko‘rinishda olib borildi. Ommaviy portlatish ishlari natijasida blokning yon tomonida, ustki va pastki qismida joylashgan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan texnologik yo‘llarning kon massasi bilan yopilib qolishining oldi olindi. Yo‘llarga zarar yetkazmay saqlab qolish kon massasini qazib olish unumdorligining oshishiga olib keldi. Shu bilan birga, ma’danli blokning geologik boshlang‘ich strukturasi saqlanib qolishiga, ya’ni, ma’dan sifatsizlanishining oldini olishga erishildi.

“Muruntov” koni mutaxassislarining bu muhim hamda iqtisodiy jihatdan samarali ratsionalizatorlik taklifini “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi barcha kar’erlarda qo‘llab, ma’dan sifatsizlanishi va yo‘qotilishining oldini olish hamda kon massasini qazib olish unumdorligini oshirishga erishish mumkin.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ Xushxabar

JAMOAMIZ
BIRINCHI O‘RIN
SOHIBI

“NKMK” AJ Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash otryadlari xodimlaridan iborat jamoamiz O‘zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi tashabbusi bilan respublika miqyosida o‘tkazilgan an’anaviy musobaqa finalida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritganligi haqida quvonchli xushxabar tarqaldi. Jumladan, vakillarimiz yuksak jismoniy va aqliy salohiyati bilan ushbu nufuzli musobaqaning umumjamo va yakka bellashuvlarida eng yuqori natijalarga erishdi.



Turli vazirlik hamda idoralarning 14 ta o‘ta muhim va toifalangan obyektlarini qo‘riqlash uchun mas’ul Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari xodimlari o‘rtasida yuqori saviya va qizg‘in bellashuvlar ostida o‘tgan musobaqada “NKMK” AJ jamoasi yana bir karra tengsiz ekanligini har jihatdan namoyish etib, bosh murabbiy Maksim Bochkaryov boshchiligidagi oltinchi bor chempionlik sharafiga sazovor bo‘ldi.

Vakillarimiz bellashuvlarda Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi Qo‘riqlash departamenti, “Navoiyuran” davlat korxonasi, “Uzbekistan Airways Technics” MChJ, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa jamoalarga imkoniyat qoldirmagani tahsinga munosibdir.

G‘alabaga erishishda “Qizilqum” kon boshqarmasidan Rustam Aliqulov, Markaziy kon boshqarmasidan Lutfullojon Ismatov, Janubiy kon boshqarmasidan

Xudoyor Elmurodov, Shimoliy kon boshqarmasidan Azizbek Shodmonov, Bekzod Bahriddinov, Sardor Aktamovlarning munosib hissasi borligini mamnuniyat bilan ta’kidlash joiz.

Yakkakurashda esa hamkasblarimiz alohida shaxsiy namuna ko‘rsatib, faxrli o‘rinlarni egallashdi. Jumladan, “Besapantov” koni nazoratchisi Lutfullojon Ismatov 1-o‘ringa, Shimoliy kon boshqarmasi vakili Sardor Aktamov 2-o‘ringa loyiq topildi.

Vakillarimiz musobaqaga tayyorgarlik ko‘rishda barcha sharoitlarni yaratib bergan “NKMK” AJ ma’muriyati, shuningdek, har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasiga qarashli “So‘g‘diyona” sport-sog‘lomlashtirish majmuasi, Tibbiy-sanitariya bo‘limi, Ovqatlanirish kombinati hamda Mudofaa vazirligining Navoiy shahridagi harbiy qismlari ma’muriyatlaridan minnatdor.

G‘alaba muborak, aziz hamkasblar! “Navoiy KMK” AJ Matbuot xizmati.

■ Xabar

Inson tabiati juda qiziq: ba’zan shundoqqina yonimizda, ko‘z o‘ngimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni payqamaymiz yoki etarli darajada e’tibor qilavermaymiz. Buning o‘ziga yarasha sabablari bor.

OSHXONA QURILISHI
YAKUNLANISH
ARAFASIDA

Avvalo, ulkan bunyodkorlik ishlariga guvoh bo‘layotganligimizdan bo‘lsa kerak, ba’zi obyektlar qurilishiga kundalik odatiy hol sifatida qaraymiz. Vaholanki, har qanday bino qurilishi, u katta yoki kichik bo‘lishidan qat’iy nazar, ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati boshqarmasi ma’muriy binosiga tushatish hovlida qurilayotgan oshxona ana shunday obyektlardan. Kombinatsion Markaziy loyihalash byurosi loyihasi asosida qadrosilayotgan oshxona qurilishini Zarafshon qurilish boshqarmasiga qarashli “Navoiy” qurilish-montaj boshqarmasi jamoasi amalga oshirmoqda. 160 o‘ringa mo‘ljallangan va yerto‘lasi bilan hisoblaganda umumiy qurilish maydoni qariyb 2,7 ming kvadrat metrni tashkil etayotgan zamonaviy oshxona qurilishiga 27 milliard so‘mdan ortiqroq mablag‘ sarflash mo‘ljallangan.

Ayni paytda qurilish maydonida ish qizg‘in davom etmoqda. “Navoiy” quri-

lish-montaj boshqarmasining 1-uchastkasi boshlig‘i Shuhrat Iskanov yetakchiligida oshxona qurilishiga safarbar etilgan 50 nafar turli kasb egalari qurilish ishlari joriy yilning yanvar oyida boshlangan obyektning dekabr oyida foydalanishga topshirish uchun sidqidildan mehnat qilmoqdalar. Binoda asosiy qurilish ishlari yakunlandi. Hozirgi kunda yangi oshxona binosida pardozlash ishlari jadal olib borilmoqda. Qurilish ishlarida betonchi Faxriddin Abdullayev, elektr payvandchi Shuhrat Shodiyev, izolatsiyalovchi Sodiq Safarov, plita qoplovchi Elmurod Xudoyqulov, duradgor Dilmurod Rahmonov, suvoqchi Aziz Mirzayevlar hamkasblariga namuna bo‘lishyapti. Ularning zahmatli mehnati bilan zamonaviy oshxona “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati ishchi-xizmatchilari, xodimlari va boshqa xo‘randalarga xizmat ko‘rsatadigan kunlar tobora yaqinlashmoqda.

N.XAYRIDINOV.

■ Yubiley

ISHLAB CHIQARISH
BARQARORLIGI
TA’MINLANMOQDA

“Navoiyuran” davlat korxonasining “Uchquduq” ishlab chiqarish maydoni tarkibidagi Sulfat kislotasi ishlab chiqarish sexi yurtimiz kimyo sanoatidagi ilk yirik inshootlardan biri sifatida 1985 yilning 20 oktabr kuni ishga tushirilgan edi.

Sexning asosiy vazifasi – uran mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan sulfat kislotasini mahalliy sharoitda tayyorlash hamda respublika sanoat tarmoqlarini ushbu muhim kimyoviy modda bilan ta’minlashdan iborat. O’sha paytda sexning ishlab chiqarish quvvati yiliga 500 ming tonnani tashkil etgan bo‘lib, bu hozirgacha barqaror saqlanib kelmoqda.

So‘nggi qirq yil mobaynida sexda jami 15,4 million tonnadan ortiq sulfat kislotasi ishlab chiqarildi. Bu mahsulotlar “Navoiyuran” DKning geotexnologik konlari, “NKMK” aksiyadorlik jamiyatining gidrometallurgiya zavodlari hamda Navoiy viloyati sanoat zonasidagi kimyo-energetika korxonalariga yetkazib berilmoqda.

2011-yildan boshlab korxonaning asosiy texnologik uskunalari va qurilmalari to‘liq rekonstruksiya qilindi. Buning natijasida ishlab chiqarish quvvati tiklandi, ish samaradorligi oshdi. 2014–2024-yillarda ishlab chiqarish rejalari 101-105 foiz darajada bajarildi.

Joriy yilda sexning 40 yillik yubileyi sharafiga ishlab chiqarish rejasi 107,8 foizga bajarilishi kutilmoqda. Bu – jamoa mas’uliyati va ishga sadoqatining amaliy ifodasidir.

Sexda mahalliyashtirish dasturi hamda innovatsion loyihalar doirasida qator amaliy ishlar amalga oshirilmogda. Xususan, quritish-absorbsiya bo‘limi uchun yangi sovutgichlar ishlab chiqarildi, qumoqli oltingugurt bo‘limi uchun zamonaviy eritish qurilmalari o‘rnatildi.

Chiqindi bug‘laridan qayta foydalanish orqali suv sarfini kamaytiruvchi kondensatorlar va ovozo‘ndirgichlar joriy etildi. Bundan tashqari, chiqindi bug‘idan foydalangan holda binolarni isitish va issiq suv ta’minoti tizimi qurildi. Geotexnologik konlar ehtiyojlari uchun “Ekstruder” qurilmalari ishlab chiqarilib, polietilen quvurlar ishlab chiqarish yo‘liga qo‘yildi.

Hozirda sexda texnik qayta jihozlash va avtomatlashtirish loyihalari izchil amalga oshirilmoqda. Texnik jarayonlarni avtomatik boshqarish tizimlari zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilinmoqda.

Sex mutaxassislari ishlab chiqarish chiqindilaridan qimmatli elementlarni qayta tiklash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. Laboratoriya sharoitida ishlatilgan vanadiy katalizatoridan vanadiy pentoksidi olish texnologiyasi yaratildi. Bu yo‘nalish kelgusida ishlab chiqarishda xomashyodan tejamkor foydalanish va yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Sex faoliyatidagi barcha yutuqlar va yuqori ko‘rsatkichlar – fidoyi muhandislar, texnik xodimlar va ishchi-xodimlarning halol mehnati samarasidir. Jamoa ahililik, sadoqat va kasbiy mahorat bilan ishlab, “Navoiyuran” davlat korxonasi-nining barqaror rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Erali VASIYEV,
“Uchquduq” ishlab chiqarish
maydoni Sulfat kislotasi ishlab
chiqarish sexi boshlig‘i.

■ Новости

Nodir DAVRONOV,
NKMK xodimlari kasaba uyushmasi
Kengashi yo'riqchisi.

■ **Xabar**

Kombinat tizimida geologiya-qidiruv ishlarini samarali tashkil etish maqsadida JORC kodeksi talablariga muvofiq ma'lumotlarning sifat-nazorat tizimi joriy etilgan.

ZAMONAVIY BURG'ILASH USKUNALARI ISH UNUMDORLIGINI OSHIRMOQDA



Hozirgi kunda yer yuzasida geologiya-qidiruv ishlarini samarali amalga oshirish uchun diametri 63 millimetr bo'lgan, kern olishga mo'ljallangan burg'ilash uskunalari keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiya orqali olingan kernning yarmini dublikat sifatida saqlash imkonini beradigan yangi usul joriy etilgan. Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasida burg'ilash ishlari 23 turdagi uskunalar yordamida olib boriladi. Ular orasida ish unumdorligi va samaradorligi bilan ajralib turuvchi "Boyles C6", "C8C", "HYDX-5A", "8HYKD-8", "CID-7A", "CID-8A" kabi modellar alohida e'tiborga molikdir. Ushbu uskunalar burg'ilash jarayonida yuqori ishonchlikni ta'minlaydi va geologiya-qidiruv ishlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

"Muruntov" konida geologik-qidiruv ishlarini 3-Geologiya-qidiruv partiyasi jamoasi amalga oshirib keladi. Partiyada 70 nafarga yaqin malakali mutaxassis xodimlar mehnat qiladi. Joriy yil davomida ushbu korxonaga xorijda ishlab chiqarilgan uchta yangi burg'ilash uskunas olib kelindi. Shuningdek, mavjud to'rta burg'ilash uskunasiga tex-

nik jihatdan to'liq yangilandi. Yangi uskunalarning joriy etilishi burg'ilash ishlarini yanada samarali va tezkor amalga oshirish imkonini yaratdi.

– Zamonaviy "RC" tipidagi burg'ilash uskunalari avvalgi modellarga nisbatan ancha takomillashgan bo'lib, geologiya-qidiruv ishlarida yuqori tezkorlik va samaradorlikni ta'minlaydi, – deydi 3-Geologiya-qidiruv partiyasi boshlig'i vazifasini vaqtincha bajaruvchi Nodirjon Mirzayev. – "RC" burg'ilash uskunasiga orqali havo pastga, quvurlar orasiga yuboriladi va u maydalangan tog' jinslarini tepaga ko'tarib chiqaradi. Bu jarayon kompressor yordamida, yuqori bosimdagi havo orqali amalga oshiriladi. Havo bilan ko'tarilgan tog' jinslari maxsus quvur orqali siklon-bunker hamda namunani qabul qilish mexanizmlariga yo'naltiriladi.

Tog' jinslari kuchli yemirilgan bo'lsa, eng zamonaviy kolonkali quvurlar qo'llanilmoqda. Bu esa sifatlari kern olish imkonini yaratadi. Hozirgi kunda ma'danli zonalardan 98 foizgacha samarali namunalar olishga erishilmoqda.

Azamat ZARIPOV.

■ **Turli kasb egalari**

BUNYODKORLAR SAFIDA

Qurilish maydonida har kun shunday. Tong yorishmasidan harakat boshlanadi. Butun atrofni ulkan kranlar, texnikalar, ish qurollari, asbob-anjomlar ovozasini tutadi. Buyoq hidi anqiydi. Tanish manzara! Har doimgidek ishchi korjomasidagi Lobar opaning shijoati tanasiga sig'maydi. Bu inson o'z ishining ustasi. Nozik qo'llari bilan ranglar jilosini yaratish kundalik vazifasi. Darvoqe, biz hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonimiz oddiy bo'yoqchi Lobar Usmonova! "Navoiy" qurilish-montaj boshqarmasida ishlaydi.



Opa o'n besh yildan beri qurilish ichida. Qo'llari mehnatda qabargan. Tirmoqlar ostida qotgan bo'yoq ranglari bundan darak. Quruvchi xalqi shunday. Mehnat qiladi, lekin charchamaydi. Peshanasidan oqayotgan reza-reza terni kafti bilan sidirib, ishini davom ettiraveradi. Qaddi doim o'zi qurgan inshootlar singari viqorli. Shuning uchun ham odamlar orasida mag'rur, shukronalik bilan yashaydi.

Ularining ishi ko'zga ko'rinmas. Lekin, chizmachilar mo'yalami bilan yaralgan loyihani haqiqatga aylantirishga hissa

qo'shayotgani haqiqat. Chunki, har bir qurilish obyektida barcha quruvchilar singari opaning ham qalb qo'ri, mehri mujassam. Ular qalbi doim ummondek. Obyektlar foydalanishga topshirilishida ishtirok etmasligi mumkin. Lekin davralarda yangragan qarsaklarda uning hissassi borligini qalban his etib, qalbida quvonch balqiydi.

Eng muhimi, hamkasbimiz hayotdan, ishidan, oilasidan mamnun. Kombinat tizimida – "Pistali" konida kran mashinisti bo'lib ishlayotgan turmush o'rtog'i bilan totuv oilada qizaloz'ini voyaga yetkazdi. O'qitib, orzularini ko'rdi. Oila uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak...

Opa yana ijodkor. Bo'sh vaqtlarida she'r yozadi. Ijod namunalarini kombinat tomonidan nashr etilgan "Kengliklar sururi", "Zomin ilhomlari" kabi to'plamlar, "Konchilar hayoti" gazetasida nashr etilgan.

Chin ko'ngildan ko'raman yaxshi, Ulug'lugum hamisha, har on. Buyoqchilik olamning naqshi, Bu kasbdan topdim hurmat, shon!

Bu – uning qalbini egallagan tuyg'u, faxru iftixorga yo'g'rilgan iqrori. Oramizda bunday oddiy odamlar, sharaflari kasb egalari ko'p. Ular bor ekan, yutuqlar bardavom, natijalar barqaror bo'ladi.

Abdumajid JO'RAYEV.

■ **Yaxshi dam – mehnatga hamdam**

Inson gohida sayohat qilib turishi, uzoq safarlarda bo'lishi lozim. Shunda, ona Vatanini sevishtni, uni qadrlashni o'rganadi. Bobolarimizning "musofir bo'lmaguncha, musulmon bo'lmaysan", degan maqolni bekorga aytishmaganiga amin bo'lasiz. Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi har yili o'nlab ishchi-xodimlarini Qirg'iz Respublikasining Issiqko'li viloyatidagi "Qirg'iz dengizi" sanatoriysiga yo'llanma bilan yuboradi. Men ham kuz oyining birinchi o'n kunligida shu zamin sari otlandim. Toshkent-Bishkek yo'nalishidagi avtobusga bilek olib, qo'shni davlat poytaxtiga, so'ngra Cho'lpon-Ota shahriga etib bordim.

CHO'LPON-OTA – ISSIQKO'L MARVARIDI

Shu o'rinda, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ishchi-xodimlar va ularning oila a'zolari hamda pensionerlarni ijtimoiy himoyalashga e'tibor qaratib kelinyotganligini e'tirof etish kerak. Bu ishlarda NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi va uning bo'linmalari, "NKMK jamg'armasi" DM, "Navoiyuran" DK, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetidagi 7 ta birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi, 152 ta boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti muhim o'rin tutmoqda. Ishchi-xodimlar salomatligini yaxshilash maqsadida, ularga "NKMK" sanatoriysi, "Gornyak" pansionati, "To'dako'l" dam olish maskani, "Metallurg", "Konchi" va "Nurobod" sanatoriya-profilaktoriylari, Yalta va Kislovodsk shahridagi "O'zbekiston" sanatoriylari, ular qatorida "Qirg'iz dengizi" sanatoriysiga, shuningdek, "Yangi yo'l", "Shaxand", ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'lari hisobidan "Turon", "Oqtosh", "Chinobod", "Umid gulshani", "Bo'ston", "Sitorai Mohi Xosa", "Chortoq", "Chimyon" sanatoriylariga imtiyozli narxlarda har yili mingdan ortiq yo'llanmalar ajratilayotgani tahsinga sazovor.

Qirg'izistondan go'zal yurtning marvaridi sanalagan Issiqko'l qirg'og'ida, tinglaganda shamoli qo'shiq aytadigan Cho'lpon-Ota shahri bor. Bu shahar nafaqat go'zal tabiati, balki inson salomatligi va ruhiyatini tatlakshiradigan markaz sifatida ham tanilgan. Unga qo'shni bo'lib qad rostlagan "Qirg'iz dengizi" sanatoriysi esa odamlarga sog'lik, kuch-quvvat bag'ishlamog'da.

Toza havosi, shaffof suvi, viqorli tog'larining qiyofasi bilan Cho'lpon-Ota shunchalik betakrorlik, tabiatning o'zi shu yerda hunarmandlik qilgandek go'yo. Shahar qadimdan yo'llar tutashgan, madaniyatlar kesishgan maskan bo'lib kelgan. Bugun u zamonaviy mehmonxonalar, madaniy markazlar va dam olish maskanlari bilan sayyohlarni quchoq ochib kutib oladi.

Cho'lpon-Otadagi Petrogliflar muzeyi insonni o'tmishga sayohatga olib boradi. Ochiq osmon ostidagi bu muzeyda ming yillik silarni saqlab turgan toshga o'yilgan tasvirlar mavjud. Hayvonlar, odamlar, ramziy belgilar chizilgan bu tasvirlar qadimgi turkiy va skif qabilalari hayotidan so'zlaydi. Go'yo toshlar, sizga tarixni hikoya qilayotgandek tuyuladi. Biz borgan kuni bu yerga Yevropadan bir guruh sayyohlar kelgan ekan. Ular kun davomida har bir yozuvga, tasvirga termulib, turkiylarning qadim o'tmishi, yozuvi va madaniyatidan



hayratlanishdi. Bu hayrat menda ham bor edi, aslida.

Cho'lpon-Otaning markazida joylashgan "Ruh orda" madaniy markazi – ma'naviyat va ilimga chorlovchi maskan, desam aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bu yerda kitob taqdimotlari, konferensiyalar, xalqaro uchrashuvlar o'tkaziladi. U zamonaviy Qirg'izistonning ma'naviy uyg'onishiga xizmat qiladigan markaz sifatida chet ellik ziyoilarni ham bir joyga to'playdi. Chingiz Aytmatov nomidagi madaniyat markazi, buddizm, iudizm, nasroniylik, islom kabi dinlarining inson kamolatlarga ta'siri kabi majmua sayyohlarni o'ziga chorlab turadi.

Issiqko'l atrofida o'nlab sanatoriylar, zamonaviy dam olish maskanlari bor. Ular orasida "Qirg'iz dengizi" sanatoriysi eng qadimgisi, qalin va baland daraxtlar bilan o'ralgan dam olish maskanidir. Bu yerga kelgan har bir inson tabiat qo'ynida mironiyat hordiq chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mineral suvlar, shifobaxsh loy, toza tog' havosi va quyosh nurlari – bularning barchasi inson organizmini tiklaydi, quvvat va yangicha ruh bag'ishlaydi. Sanatoriya shifokorlari va mutaxassislari esa bu tabiiy omillarni zamonaviy tibbiyot bilan uyg'unlash-

tirib, yurak-qon tomir, asab tizimi, me'da-ichak va boshqa kasalliklarni davolashda katta samaraga erishmoqda. Sihatgohga O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlardan ham ko'plab sayyohlar kelar ekan.

– Men har yili ushbu sihatgohga kelishga harakat qilaman, – deydi Navoiy shahridagi Tibbiy-sanitariya bo'limi xodimi Ra'no Davlatova. – Katta maydonni egallab turgan Issiqko'lining musaffo havo bilan to'yingan arxalari inson salomatligiga yaxshi ta'sir etadi.

Sanatoriya shifo muolajalaridan tashqari tabiat qo'yniga sayohatlar ham uyushtirilib turilarkan. Cho'lpon-Ota shahridan 40 chaqirim masofada, tabiat qo'y-

nida "Grigorskiy" darasi bor. U dara bo'ylab yurganda sharsharalarning qulog'ingizga yorqin musiqa kabi chalingan ovozi eshitiladi. Yashil o'tloqlar va tog' qiyaliklarida yurgan sayyoh tabiatning betakror husnidan bir lahzaga bo'lsada zavq oladi. Bu dara tabiatning sevgi qo'shig'i kabi odamga orom bag'ishlaydi. Xalq tilida Olatog' deya ta'rif etilgan baland tog'lar, shoshqaloq suvning shovqini, balandligi 30 metr keladigan archalar insonni tabiatga oshiq qilib qo'yadi.

– Qizilqum sahrosi markazida yashagan inson bunday so'lim tabiat quchoq'iga tushib qolsa butun charchoqlar chiqib ketar ekan, to'g'risi tabiatning bu go'zalligi menga kuch bag'ishladi, – deydi Markaziy kon boshqarmasining 7-avtokorxona ishchisi Sherzod Azimov.

Cho'lpon-Ota shahri va "Qirg'iz dengizi" sanatoriysida inson tabiat va tarix uyg'unligini his qiladi, o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prikdan o'tadi. Shu boisdan Cho'lpon-Otani Qirg'izistonning marvaridi, "Qirg'iz dengizi"ni esa odamlarga ma'naviy kuch bag'ishlaydigan maskan, desak yangilishmagan bo'lmaz.

Azamat G'ULOMOV.

SHIFO MASKANI

Mashaqqatli mehnatdan so'ng dam olish tanga kuch-quvvat baxsh etadi, qalbg huzur olib kiradi. Bunda sanatoriya va sog'lomlashtirish maskanlari muhim o'rin tutadi. Dam olish jarayonida inson yil davomida to'plangan charchoq'idan xalos bo'lish bilan birga, tanasi orom topib, sog'ligini tiklaydi. Tizim tarkibidagi sanatoriylar zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, ularda malakali shifokorlar, hamshiralar faoliyat yuritib kelishmoqda. Biz ham yaqinda oilamiz bilan ana shunday maskanlaridan biri bo'lgan "Nurobod" sanatoriya-profilaktoriysida dam olib sog'ligimizni mustahkamladik.

Samarqand viloyatining so'lim go'shasida joylashgan sanatoriya-profilaktoriy inson ruhiyatiga orom, tanasiga shifo bag'ishlaydigan maskan ekanligiga guvoh bo'ldim. Hududi gulzor, mevali va manzarali daraxtlar dam oluvchilar uchun musaffo havo, tinch va oromli muhit yaratgan. Qushlar sayragan, shahar shovqin-suronidan yiroq bo'lib oromgohda inson tabiat bag'rida to'yib nafas oladi. Sanatoriya qariyb o'n yildan buyon kombinatimizda faoliyat olib borayotgan insonlar va ularning oila a'zolari uchun aziz maskanga aylangan. Sog'lomlashtirish maskani yiliga 1,2 ming nafarga yaqin dam oluvchilarni qabul qilib, xizmat ko'rsatmoqda.

Sanatoriya asosan suyak-bo'g'im kasalliklari, revmatit artrit, osteoandroz, umurtqa disklarining shikastlanishlari, siydik yo'llari, bronx-o'pka tizimi hamda endokrin kasalliklar bilan og'rigan bemorlar davolanishadi. Barcha xonalarda zamonaviy mebellar, isitish-sovutish tizimi, muzlatgich, televizor hamda Wi-Fi internet tarmog'i mavjud.

– Asosiy maqsadimiz kombinat tizimida faoliyat olib borayotgan konchi-



metallurklar, ishchi-xizmatchilar, mehnat faxriylari va ularning oila a'zolari sog'liklarini mustahkamlash, sog'lom hayot kechirishlariga yordam berish, – deydi biz bilan suhbatda bosh shifokor Gulchehra Normatova. – Biz uchun eng katta baxt – bu dam oluvchilarning yuzidagi tabassum. Kelgusida muolajalarimiz turlarini kengaytirish va xorij tajribasini joriy etishni rejalashtirganmiz.

"Nurobod" sanatoriysi nafaqat bugun, balki ertan ham ishonchli maskani bo'lib qoladi. Salkam o'ttiz yil tibbiyot sohasida faoliyat olib borayotgan opa 2016-yildan buyon sanatoriya bosh shifokor bo'lib ishlab kelmoqda.

Italiya va Germaniya davlatlarida ishlab chiqarilgan, eng so'nggi rsumdagi zamonaviy tibbiy uskunalar yordamida radonli mineral suvi vanna, sirkular va sharko dushlar, gidromassaj, elektr, magnit, fito va fizioterapiya, tuzli g'or, parafin hamda massaj muolajalarining barchasi inson salomatligi uchun shifo manbaidir. Fitness zali, kichik futbol, volleyball maydonlari, shaxmat-shashka, tennis va bilyard xonalari dam oluvchilar xizmatida.

Yillar davomida mehnat qilgan inson uchun bunday g'amxo'rlik katta qadriyat. – Nafaqada bo'lishimizga qaramay kombinatimiz tomonidan doimo e'tibordamiz. Turmush o'rtog'im bilan turli sanatoriylarda bo'lganmiz. Bu yil "Nurobod" sanatoriya-profilaktoriysiga dam olish uchun keldik. Bu yerda davolash xonalari maskan ichida joylashganligi biz, keksalarga qulaylik yaratadi. Radon suvi vanna va massaj muolajasidan so'ng, o'zimni yengil his qilayapman. Xonalarda yaratilgan sharoitlar, tabiiy muhit va tibbiyot xodimlarining samimiyligi bizga juda yoqdi. Bu yerda har bir inson o'zini qadrli his qiladi. Bu maskanga kelib dam olishni barchaga tavsiya qilaman, kelgusi yil ham shu yerda dam olish niyatidamiz, – deydi Hasan bobo Ikromov.

– Turmush o'rtog'im bilan kombinat tizimida o'ttiz yil faoliyat yuritib, ayni vaqtda nafaqadamiz. Men sog'liqni saqlash tizimida hamshira bo'lib, turmush o'rtog'im 2-gidrometallurgiya zavodida mehnat qilganlar, – deydi yana bir dam oluvchi opaxonimiz Xadija Yesjanova. – Umrim bemorlarga xizmat qilish bilan

o'tdi. Biz uchun g'amxo'rlik qilinayotganini his qilish insonga zavq bag'ishlar ekan. Jamoaning xushmuomalaligi, radonli suvning shifobaxshligi va taomlarning mazzaligi bizga yoqdi. Sanatoriya kelganimizdan xursandmiz. Bu yerda ruhiy shifo ham topdik.

Madaniyat va san'at kundalik hayotga quvonch va shodlik bag'ishlaydi. Kun ora "Nurobod" madaniyat uyining iqtidorli ijodiy jamoalari sanatoriya tashrif buyurib, dam oluvchilar uchun konsert dasturlari namoyish etishadi. Ular tomonidan ijro etiladigan zamonaviy va milliy kuy-qo'shiq hamda raqslar dam oluvchilarga xushkayfiyat bag'ishlaydi.

Bosh shifokor va dam oluvchilarning yuzlaridagi tabassum, ko'zlaridagi shodlik meni ham ruhlantirdi. Biz sanatoriya ruhiy yengillik va kuch-quvvat olib qaytdik hamda uning shifo va orom manbai ekanligiga guvoh bo'ldik. Har bir dam oluvchi bu maskanda sog'lom hayotning qimmatini teran anglab, shukronalik va shodlik tuyg'usiga oshno bo'ladi.

Aziza IRISOVA.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy,
"NKMK" AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasini tahririyatida terildi va sahifalandi. "Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitemen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Dildora KARIMOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi. Buyurtma № 478. 2025-yil 16-oktabr 17:00 da chop etishga topshirildi.